



YOSHLAR VA TA'LIM SIYOSATI: BARQAROR TARAQQIYOT SARI YANGI
YONDASHUVLAR

Tiloverdiyeva Shoxzoda Shokirjon qizi
Alfraganus Universiteti Maxsus pedagogika kafedrasida
“Logopediya” yo'naliishi 3-kurs talabasi
+998930671019

Annotatsiya: Mazkur maqolada yoshlar va ta'lim siyosatining barqaror taraqqiyotdagi o'rni tahlil qilinadi. Ta'lim siyosatining yangi yondashuvlari – raqamli ta'lim, inkluziv yondashuv, hayot davomida ta'lim va xalqaro hamkorlikning afzalliklari ilmiy asosda yoritilgan. Shuningdek, O'zbekiston tajribasi hamda davlat siyosatida yoshlarning barkamolligini ta'minlashga qaratilgan strategiyalar tahlil qilinib, barqaror taraqqiyot sari olib borilayotgan islohotlarning ilmiy-amaliy ahamiyati ko'rsatib beriladi.

Kalit so'zlar: yoshlar, ta'lim siyosati, barqaror taraqqiyot, innovatsion tafakkur, raqamli ta'lim, inkluziv ta'lim, xalqaro hamkorlik.

Аннотация: В статье анализируется роль молодёжи и образовательной политики в устойчивом развитии. Научно освещаются преимущества новых подходов к образовательной политике: цифрового образования, инклюзивного подхода, непрерывного обучения и международного сотрудничества. Анализируется опыт Узбекистана и стратегии, направленные на обеспечение благополучия молодёжи в государственной политике, а также показана научная и практическая значимость проводимых реформ в целях устойчивого развития.

Ключевые слова: молодёжь, образовательная политика, устойчивое развитие, инновационное мышление, цифровое образование, инклюзивное образование, международное сотрудничество.

Annotation: This article analyzes the role of youth and education policy in sustainable development. The advantages of new approaches to education policy - digital education, inclusive approach, lifelong learning and international cooperation - are scientifically highlighted. Also, the experience of Uzbekistan and strategies aimed at ensuring the well-being of youth in state policy are analyzed, and the scientific and practical significance of the reforms carried out towards sustainable development is shown.

Keywords: youth, education policy, sustainable development, innovative thinking, digital education, inclusive education, international cooperation.

XXI asrda inson kapitali taraqqiyotning bosh mezoni sifatida maydonga chiqmoqda. Yoshlar esa jamiyatning eng faol, yangilikka intiluvchi va kelajak taraqqiyotini belgilovchi qatlamidir. Bugungi globallashuv, raqamli transformatsiya va bilim iqtisodiyoti sharoitida yoshlar ta'limini rivojlantirish, ularga yangi bilim va ko'nikmalarni berish davlat siyosatining eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Ta'lim siyosatidagi yangi yondashuvlar yoshlarning barkamol avlod sifatida shakllanishini ta'minlab, barqaror



taraqqiyot sari mustahkam zamin yaratadi. Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya davrida yoshlarning barkamol bo'lib voyaga yetishi, ularning intellektual salohiyati va ijtimoiy faoliyati bevosita innovatsion tafakkurning rivojlanish darajasiga bog'liq. Innovatsion tafakkur nafaqat yangi g'oyalar ishlab chiqish, balki mavjud muammolarga kreativ yondashish, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonida faol ishtirok etish, shuningdek, milliy taraqqiyotga hissa qo'shishda muhim omil hisoblanadi.

Men bu fikrlarimni bayon etishimda oshlar va ta'lim siyosati, barqaror taraqqiyot sari yangi yondashuvlarda ta'lim siyosati va yoshlar taraqqiyotidagi o'rni, barqaror taraqqiyot va ta'limning strategik ahamiyati, ta'lim siyosatida yangi yondashuvlar va O'zbekiston tajribasi haqida qisqacha to'xtalib o'taman.

Ta'lim siyosati jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi bilan bevosita bog'liq bo'lib, yoshlarni raqobatbardosh mutaxassis sifatida tarbiyalashga qaratilgan.

Barqaror taraqqiyotda yoshlarning intellektual salohiyati asosiy kuch manbai sanaladi.

Ta'lim sifatini oshirish orqali jamiyatning barcha sohalarida yangiliklarni tatbiq etish imkoniyati kengayadi.

Inson kapitali rivoji: Yoshlarning bilim, ko'nikma va malakasini zamon talablariga mos shakllantirish.

Innovatsion tafakkur: Kreativ fikrlashni rivojlantirish, yangilik yaratishga yo'naltirish.

Ijtimoiy adolat va tenglik: Har bir yosh uchun teng imkoniyatlarni ta'minlash.

Raqamli ta'lim – sun'iy intellekt, onlayn kurslar va masofaviy o'qitish imkoniyatlari.

STEAM yondashuvi – fan, texnologiya, muhandislik, san'at va matematikani integratsiyalash orqali ijodkorlikni rivojlantirish.

Inkluziv ta'lim – imkoniyati cheklangan yoshlar uchun ham teng sharoit yaratish.

Hayot davomida ta'lim – doimiy malaka oshirish va qayta tayyorlash tizimi.

Xalqaro hamkorlik – xorijiy tajribalarni o'rganish va global ta'lim standartlariga moslashish.

O'zbekiston Respublikasida qabul qilingan "Yoshlar – kelajagimiz" davlat dasturi. 2030-yilgacha ta'lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasi asosida innovatsion ta'lim tizimining joriy qilinishi.

Prezident Sh.M.Mirziyoyev tashabbusi bilan tashkil etilgan innovatsion maktablar, yoshlar texnoparklari va startap loyihalar.

Innovatsion tafakkur — yangilik yaratishga intilish, mavjud bilim va tajribani yangi sharoitlarda samarali qo'llash qobiliyati. Yoshlar uchun innovatsion tafakkur bilim olish jarayonida mustaqil fikrlashni shakllantiradi va ijtimoiy faollikni oshiradi.

Bu tafakkur orqali shaxs kreativ g'oyalarini real loyihaga aylantirish, ijtimoiy va iqtisodiy sohalarida samaradorlikka erishishi mumkin.

Intellektual rivojlanish: Yoshlar yangi bilimlarni tez o'zlashtirish, raqamli texnologiyalarni o'rganish orqali global jarayonlarga moslashadi.'

Ijtimoiy faollik: Innovatsion tafakkur ularga jamiyatda yangiliklarni ilgari surish, ijtimoiy loyihalarda yetakchi bo'lish imkonini beradi.



Milliy qadriyatlar uyg'unligi: Innovatsion tafakkur milliy an'analarni zamonaviy bilim va texnologiyalar bilan uyg'unlashtiradi.

Kasbiy kompetensiya: Bozor iqtisodiyotida yosh mutaxassislarning aqobatbardoshligini oshiradi.

Innovatsion tafakkurni rivojlantirish omillari Ta'lim tizimi: Zamonaviy pedagogik texnologiyalar, STEAM ta'limi, raqamli ta'lim vositalaridan foydalanish.

Davlat siyosati: Yoshlar innovatsion faoliyatini qo'llab-quvvatlash, grantlar, startap loyihalar uchun imkoniyatlar yaratish. Ommaviy madaniyat va motivatsiya: Yoshlar orasida muvaffaqiyatli innovatorlar, ixtirochilar va startapchilar obrazini targ'ib qilish. Xalqaro hamkorlik: Yoshlarning xorijiy tajribalarni o'rganishi, almashinuv dasturlarida ishtiroki.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan qabul qilingan "Yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ularning intellektual va ijodiy salohiyatini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida belgilash" siyosati.

"Yoshlar – kelajagimiz" dasturi doirasida yuzlab innovatsion startap loyihalarning amalga oshirilishi. Ta'limda sun'iy intellekt, robototexnika va biotexnologiyalar bo'yicha maxsus dasturlar joriy etilishi.

Yoshlar barkamolligi – bu nafaqat jismoniy va ma'naviy yetuklik, balki intellektual va innovatsion salohiyatni to'liq namoyon etishdir. Innovatsion tafakkur yoshlarning kelajakda nafaqat milliy, balki global miqyosda raqobatbardosh kadrlar bo'lishini ta'minlaydi. Shu bois ta'lim tizimi, jamiyat va davlat siyosati yoshlarning innovatsion tafakkurini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan bo'lishi zarur.

Yoshlar va ta'lim siyosati – barqaror taraqqiyotning asosiy drayveridir. Zamonaviy yondashuvlar yoshlarni nafaqat bilimli, balki global miqyosda raqobatbardosh, ijtimoiy mas'uliyatli va kreativ tafakkurli shaxslar sifatida shakllantiradi. Shu bois, ta'lim siyosatini yangilash, raqamli transformatsiya, xalqaro integratsiya va innovatsion ta'lim metodlarini joriy etish kelajak taraqqiyoti uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yoshlar – kelajagimiz" davlat dasturi to'g'risida" Farmoni. – Toshkent, 2017.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. 2030-yilgacha ta'lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasi. – Toshkent, 2019.